

INKLYUZIV TA'LIMNING JAMIYATDAGI O'RNI

Nazarova Nigora Erdoshovna*Roman-german filologiyasi fakulteti**Nemis tili amaliy fanlar kafedrası**stajyor-o`qituvchisi*

Annotatsiya: Siz ushbu maqolani o'qish davomida inklyuziv ta'lim haqida to'liq ma'lumot, uning ijobiy va salbiy tomonlari, kelajakda bu o'qitish metodi samarali bo'la oladimi va tajribalar haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, imkoniyati cheklangan, qonunchilik, Infratuzilma,

Jamiyatimiz faxri bo'lgan yoshlarning qanchalik sog'lom bo'lishi kelajak uchun muhim hisoblanadi. Chunki sog'lom avlod yetuk va barkamol kadr bo'lib yetishadi. Hozirgi kunda ta'lim sohasiga inklyuziv ta'lim yo'nalishi kirib keldi. Aslida bu yo'nalishning mazmuni qanday?

Inklyuziv ta'lim — barcha o'quvchilar uchun maxsus ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliligini inobatga olgan holda ta'lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta'minlashdir.

Bolalarning qobiliyatlaridan va holatidan qat'i nazar ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak. Bu ta'limda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Umuman olganda, inklyuziv ta'lim umumiy ta'limni rivojlantirish jarayoni bo'lib, u barcha uchun ta'limning mavjudligini nazarda tutadi, bu alohida ehtiyojli bolalarning ta'lim olish imkoniyatini ta'minlaydi. Nima uchun imkoniyati cheklangan bolalar o'z uylaridan, ota-onalaridan, yaqinlaridan uzoqda maxsus ixtisoslashtirilgan maktablarda o'qishlari kerak? Ularning ham o'z uylaridan, ota-onalarining bag'ridan o'z uylariga yaqin bo'lgan maktablarda ta'lim olishga haqlari bor. Inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari: Imkoniyati cheklangan bolalarning sog'lom bolalar qatorida erkin ta'lim olishi va bolalar o'rtasida o'zaro hurmat va hamjihatlikni shakllantirish va ularni ijtimoiy muhitdan uzilib qolmasligini ta'minlash.

Inklyuziv ta'limning imkoniyati cheklangan bolalar uchun afzalliklari:

Boshqa bolalar bilan teng ravishda jamiyatga qo'shilish qobiliyati; Sifatli ta'lim olish hamda kelajakda Universitetlarda o'qish, o'zi xohlagan kasbni tanlash va mana shu kasb doirasida ishlash, jamiyatning to'laqonli va mustaqil a'zosi bo'lish imkoniyati; Ikkinchisining ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun sog'lom bolalar va maxsus ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni birgalikda o'qitish zarur. Inklyuziv maktabgacha ta'lim nogironlarga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalashga yordam beradi,

chunki go'daklar hali ham boshqalar kabi tug'ilmagan tengdoshlariga nisbatan dushmanona xurujlarga ega emaslar. Jahon tajribasi shuni tasdiqlaydiki, qo'shma guruhlarda o'qiyotgan maktabgacha yoshdagi bolalar yanada yaxshi natijalarga erishmoqdalar. Bu sog'lom bolalarga ham, alohida ehtiyojli bolalarga ham tegishli. Maktablarda inklyuziv ta'limning afzalliklari yaqqol ko'rinib turgan bo'lsa-da, kamchiliklari sezilarli va ularni hal etish qiyin. Kerakli jihozlarni sotib olish, o'quv binolarini qayta qurish, o'qituvchilar va psixologlarni tayyorlash uchun moliyaviy bazaning etishmasligi bu turdagi ta'limni deyarli imkonsiz qiladi. Biroq, har yili vaziyat juda tez bo'lmasa ham, yaxshilanmoqda.

Ushbu sohada qiyinchiliklar tomonlari juda ko'p. Jumladan, o'qituvchi bo'lishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Siz bir vaqtning o'zida pedagog, psixolog va tibbiy tomonlama ham bilimga ega bo'lishingiz lozim. Chunki bu oddiy ta'lim yo'nalishi emas. Bunda pedagogda kuchli sabr va matonat talab qilinadi. Misol keltirib aytishimiz mumkinki, bolada yuz beradigan har bir holat uchun o'qituvchi tayyor tura olish kerak. Bola to'satdan asabiy holatga tushib qolishi mumkin. Yoki uni kasalligini yuzaga chiqishi mumkin. Bu albatta kasallik turiga bog'liq. Ijobiy tomonlama o'ylab qarasak, bu soha rivoj topsa yetuk shaxslar yetishib chiqadi. Chunki imkoniyatlari cheklangan bolalar psixologik tomondan ancha kuchli bo'lishida. Ba'zi sog'lom insonlarga nisbatan.

Tanganing ikkinchi tomonini ham o'ylab ko'rsak, bu yo'nalish hali tajribadagi jarayon bo'lib, hali to'laqonli amalga oshirish kerak deyish qiyin. Chunki bu sohada amalda bajarib ko'rilmagan. Buning oqibatlarini o'ylab chiqilmoqda. Chunki bu ta'lim yo'nalishini hali hech bir pedagogda to'lliq ma'lumotlar yo'q. Ya'ni avval nazariy bilim keyin esa tajriba oshirib, amaliyotda qo'llab ta'lim beradigan o'qituvchilarni tayyorlash jarayoni bo'lmoqda. Agar bu jarayondan oliy ma'lumotli ustozlar yetishib chiqsa, bu sohada katta rivojlanish va o'zgarish bo'lishi kutilmoqda. Aslida bu ta'lim jarayoni oddiy bilim berishdan ancha farqli va zavqliroq. Chunki u turdagi bolalarga bilim berish ancha mashaqqat talab etadi. Bu sohada yaxshilanishni bo'lsa, yaqin 10 yillikda ushbu soha uchun qo'shimcha binolar va ustozlarni tashkil etiladi.

Inklyuziv ta'limni kelajakda rivojlantirish uchun quyidagi muhim chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Qonunchilik va siyosatni takomillashtirish

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlaydigan qonun va me'yoriy hujjatlarni yangilash.

Maxsus ehtiyojli bolalar huquqlarini ta'minlaydigan strategiyalar ishlab chiqish.

Maktab va oliy ta'lim muassasalarida inklyuziv ta'lim bo'yicha davlat dasturlarini yaratish.

2. O'qituvchilarni tayyorlash va qayta tayyorlash

Inklyuziv ta'lim metodikalari bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish.

O'qituvchilarni nogironligi bo'lgan o'quvchilar bilan ishlashga tayyorlash.

Amaliy mashg'ulotlar va tajriba almashish imkoniyatlarini yaratish.

3. Infratuzilmani moslashtirish

Maktab va universitetlarni maxsus ehtiyojli talabalar uchun moslashtirish (panduslar, liftlar, Braille yozuvi bilan jihozlangan o'quv materiallari).

Raqamli texnologiyalarni joriy etish, jumladan, maxsus ilovalar va kompyuter dasturlarini rivojlantirish.

Sinf va auditoriyalarni har bir bola ehtiyojiga mos jihozlash.

4. Ota-onalar va jamiyatni jalb etish

Ota-onalar uchun maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish.

Inklyuziv ta'limni qo'llab-quvvatlash bo'yicha jamiyatda targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish.

Nogironligi bo'lgan shaxslarni jamiyatga integratsiya qilishga qaratilgan loyihalarni qo'llab-quvvatlash.

5. O'quv dasturlarini moslashtirish

Individual ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.

Maxsus ta'lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish.

Har bir o'quvchining ehtiyojiga qarab baholash va qo'llab-quvvatlash tizimini joriy qilish.

6. Xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish

Rivojlangan mamlakatlarning inklyuziv ta'lim bo'yicha tajribalarini o'rganish va moslashtirish.

Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilib, grantlar va texnik yordam olish.

Yuqorida berib o'tilgan ma'lumotlardan shuni xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu sohada yaxshilanish bo'lsa, imkoniyati cheklangan bolalar yaxshi va yetuk bo'lib yetishadi va jamiyat uchun foydali ishlarni, loyihalarni amalga oshirishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 <https://sdgnuuz.uz/?p=6796>

2 <http://azkurs.org/bolalar-pedagogikasi.html?page=9>